



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 1199,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Ijara xizmatlarining o'sish sur'ati 143,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1464,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1199,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,8 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ijara xizmatlari (43,4 %), moliyaviy xizmatlar (35,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (28,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (20,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1464,5 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (19,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,6 %) ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlari**

| | Hajmi mlrd. so'm | O'sish sur'ati,% hisobida | Umumiy hajmga nisbatan % hisobida |
|---|---------------------|---------------------------------|--|
| Jami xizmatlar | 1199,3 | 108,8 | 100,0 |
| <i>shu jumladan : xizmat turlari bo'yicha</i> | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 103,6 | 111,2 | 8,6 |
| moliyaviy xizmatlar | 178,7 | 135,4 | 14,9 |
| transport xizmatlari | 229,0 | 102,8 | 19,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| avtotransport xizmatlari | 221,9, | 104,5 | 18,5 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 31,1 | 104,1 | 2,6 |
| savdo xizmatlari | 405,6 | 101,7 | 33,8 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 35,8 | 102,9 | 3,0 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 41,2 | 128,4 | 3,4 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 17,6 | 120,7 | 1,5 |
| ijara xizmatlari | 29,3 | 143,4 | 2,4 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash xizmatlar | 38,1 | 102,8 | 3,2 |
| shaxsiy xizmatlar | 35,7 | 102,8 | 3,0 |
| me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 13,4 | 106,0 | 1,1 |
| boshqa xizmatlar | 40,2 | 99,9 | 3,4 |

**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi**

Mas'ul: Sh.Usmonqulov
(0371)-230-86-31
(0367)-225-29-20